

TURIZMDA INVESTISION RESURSLAR SAMARADORLIGI TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Mamayunusov Temurbek Olimovich

“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS

XALQARO UNIVERSITETINING MUSTAQIL TADQIQOTCHISI

Mamayunusov97@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15268101>

Annotatsiya: Moliyaviy resurslar tanqisligi mavjud bo‘lgan O‘zbekiston uchun investision faoliyat samaradorligini ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Turizm sohasida investitsion resurslar samaradorligini oshirishning mohiyati shundaki, ushbu ahamiyatli resurslarni taqsimlash va foydalanish jarayonida har bir investision resurs sarfiga yuqori iqtisodiy natijalarga erishishni ta’minlash zarur. Maqolada muallif tomonidan turizmda investitsion resurslar samaradorligi ta’sir etuvchi omillarning qisqacha izohi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, investitsiya, resurs, samaradorlik, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, foyda, iste’molchi, davlat, innovatsiya, menejment, multiplikator, bandlik, import.

Аннотация: Обеспечение эффективности инвестиционной деятельности имеет особое значение для Узбекистана, где наблюдается дефицит финансовых ресурсов. Сущность повышения эффективности инвестиционных ресурсов в сфере туризма состоит в том, что в процессе распределения и использования этих важных ресурсов необходимо обеспечить достижение высоких экономических результатов по расходованию каждого инвестиционного ресурса. В статье автор дает краткое пояснение факторов, влияющих на эффективность инвестиционных ресурсов в сфере туризма.

Ключевые слова: туризм, инвестиции, ресурс, производительность, микроэкономика, макроэкономика, прибыль, потребитель, государство, инновации, управление, мультипликатор, занятость, импорт.

Abstract: Ensuring the efficiency of investment activities is of particular importance for Uzbekistan, which has a shortage of financial resources. The essence of increasing the efficiency of investment resources in the tourism sector is that it is necessary to ensure the achievement of high economic results for each investment resource expenditure in the process of distributing and using these important resources. The article provides a brief explanation of the factors affecting the efficiency of investment resources in tourism by the author.

Key words: tourism, investment, resource, efficiency, microeconomics, macroeconomics, profit, consumer, state, innovation, management, multiplier, employment, import.

Kirish. Jahon xo‘jaligining globallashuvi natijasida ichki hamda tashqi bozorlarda raqobat kurashi tobora keskinlashib bormoqda. Bu esa milliy iqtisodiyot va uning tarkibidagi barcha tarmoq va xo‘jalik subyektlari oldiga samaradorlikni oshirish, har bir resurs birligiga imkon qadar yuqori natijaga erishish muammosini yanada kuchaytiradi. Moliyaviy resurslar tanqisligi mavjud bo‘lgan O‘zbekiston uchun investision faoliyat samaradorligini ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Turizm sohasida investitsion resurslar samaradorligini

oshirishning mohiyati shundaki, ushbu ahamiyatli resurslarni taqsimlash va foydalanish jarayonida har bir investitsion resurs sarfiga yuqori iqtisodiy natijalarga erishishni ta'minlash zarur.

Yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoning amaliyotda hal etilishi investisiyalarga yo'naltirilgan iqtisodiy resurslar samaradorligini tahlil qilish va baholash bilan bog'liq mezon va ko'rsatkichlar tizimini qo'llashni taqozo etadi. Investitsion resurslar turistik korxonalar faoliyatini rivojlantirishda va ularning bozordagi mavqeini mustahkamlashda asosiy omil hisoblanadi. Xo'jalik subyekti faoliyati hajmini kengaytirish va o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarning bajarilishi investisiyaga sarflangan resurslardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Asosiy qism. Turizm sohasiga jalb etilgan investitsion resurslarning samaradorligini oshirish ularni har tomonlama va chuqur tahlil qilishni, investitsion faoliyatning yutuqli tomonlari va kamchiliklarini, ularning sabablarini aniqlashni, resurslarni takomillashtirish va tasdiqlash, ulardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bizningcha, investitsion resurslar tahlilining to'la qonli va barcha yashirin zahiralarni aniqlash imkonini beradigan darajada bo'lishi uchun, iqtisodiy tahlil ikki darajada: makrodarajada, ya'ni, butun mamlakat miqyosida turizm investitsion resurslarning samaradorligi va mikrodarajada ya'ni, alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar kesimida amalga oshirilishi lozim.

Investitsion resurslardan foydalanish samaradorligining asosiy mezoni kam sarf-xarajatlar bilan yuqori natijaga erishish hisoblanadi. Ushbu nuqtai-nazardan makro va mikro darajada investitsion resurslar tahlili qo'llaniladigan usullar, ko'rsatkichlar, maqsad va vazifalar keskin farq qiladi.

Makrodarajada turizm sohasida investitsion resurslar mamlakat yalpi ichki mahsulotini oshirishga, aholi bandligini ta'minlashga, byudjetga tushadigan daromadlarni ko'paytirishga, uning jahon bozoridagi mavqeini mustahkamlashga, turizm bilan bog'liq soha va tarmoqlarning taraqqiyotiga, davlatning xalqaro nufuzini oshirishga, aholi daromadlari va turmush farovonligini yuksaltirishga va boshqa bir qator muhim vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Turizm "xarajatlar-daromadlar" zanjirida xorijlik har bir turistga qilgan xarajatlari va har bir turistning mamlakat hududidagi farq hisobidan yuqori daromad olishga imkon yaratadi.

Mikrodarajada amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Investitsion resurslarni shakllantirish va ularni amalga oshirish turistik korxona va tashkilotlar darajasida hal bo'lganligi sababli, investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi ham ko'p jihatdan korxona darajasida hal bo'ladi.

Milliy iqtisodiyotda turizmning bevosita ta'siri ostida multiplikativ samara yuzaga keladi. U turizm sohasiga daxldor bo'lgan milliy iqtisodiyot barcha tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmini kengaytirishni va yaratilgan yangi ish o'rinlari hisobidan bandlik darajasini oshirishni rag'batlantiradi. Chunki turizm maqsadida mamlakatga tashrif buyuruvchi sayohatchilar o'zlarining fiziologik ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda, tovar va xizmatlarga ikkilamchi talab bildiradilar.

Ilmiy adabiyotlarda turizm yetti xil multiplikator borligi ta'kidlanadi: 1) ishlab chiqarish multiplikatori; 2) sotish multiplikatori; 3) daromad multiplikatori; 4) bandlik

multiplikatori; 5) ish haqi multiplikatori; 6) davlat daromadlari multiplikatori; 7) import multiplikatori[1]. Multiplikativ samaraning mohiyati shundaki, sayohat chog'ida har bir turistdan uning ehtiyojlarini qondirishdan olinadigan daromadlar, unga turistik xizmatlar ko'rsatishga qilingan xarajatlarga nisbatan ortiq bo'ladi. Shveysariya olimlarining fikrlariga muvofiq turmahsulot ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlardan olinadigan daromad, mamlakat yoki mintaqaning xususiyatlariga qarab, 1,2 dan 4,0 gacha darajada bo'ladi. Bu degani, masalan, O'zbekistonda turmahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan sarf-xarajatlarning har bir so'miga 1,2 so'mdan 4 so'mgacha ustama daromad olish mumkin.

Turizm sohasida uning rivojlanishi natijasida ko'lamli miqdor va sifat o'zgarishlar yuz beradi va ular murakkab soha sifatida jamiyat hayotining turli sohalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Turizm serqirra va murakkab muhitda faoliyat ko'rsatuvchi soha sifatida, o'z taraqqiyoti jarayonida mamlakat miqyosida ko'p soha va tarmoqlarning, mamlakat ijtimoiy taraqqiyotining, aholi turmush darajasi va sifatini yuksaltirishning juda ko'p muammolarini yechishning vositasi hisoblanadi.

Bizningcha, uning makrodarajadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini quyidagilar bilan ifodalash maqsadga muvofiq:

- A. mamlakat aholi daromadlari, uning hayot farovonligini oshirish;
- B. yangi ish o'rinlarini yaratish;
- C. innovatsion turmahsulot ishlab chiqarish va turistlarga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tarmoqlarni rivojlantirish;
- D. hunarmandchilik va madaniyat markazlari faoliyatini rivojlantirish;
- E. valyuta tushumlarini ko'paytirish;
- F. davlat byudjeti daromadlarini ko'paytirish.

Yuqorida keltirilgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barchasi katta darajada turizm oldingi yillar davomida shakllantirilgan asosiy fondlar va joriy yilda jalb etilgan investisiyalar hajmiga chambarchas bog'liq. Masalan, xorijdan keladigan turistlarning har biriga muayyan miqdordagi turmahsulotlarni taklif qilish hech qachon muayyan miqdordagi investisiyalarsiz amalga oshmaydi.

Turizmning imkoniyatlaridan va unda mujassamlashgan ulkan salohiyatdan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning amaliy muammolarini hal etishning unumli vositasi sifatida foydalanayotgan chet el davlatlarida iqtisodchi olimlar turizm iqtisodiyotiga juda katta e'tibor beradilar. Iqtisodchi O.Benerji boshqa mualliflar bilan birgalikda turizm makrodarajada investisiyalar tahliliga oid iqtisodiy model yaratgan[2]. Ushbu model yordamida tadqiqotchilar o'ta murakkab, ayni paytda turizm investisiyalarning makroiqtisodiy tahliliga oid juda muhim vazifani bajarganlar. Model yordamida ular investisiyalarning milliy iqtisodiyotning o'sishiga, aholi bandligiga va daromadlar hajmiga qanchalik ta'sir ko'rsatishini raqamlarda izohlab berishga harakat qilganlar.

Bizningcha, O.Benerji tomonidan taklif etilgan modelni O'zbekistonda turizm investisiyalarning mamlakatda iqtisodiy o'sish, aholi bandligi darajasining oshishi, daromadlarining ko'payishiga ta'sirini aniqlash uchun ishlatish e'tiborga loyiq natijalar bermaydi. Sababi O'zbekistonda turizm sohasining ushbu makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirishdagi ulushi, hali sezilarli darajada emas. Shu sababli turizm investisiyalarning samaradorligini ularning ushbu tarmoq miqyosida yaratilgan yalpi ichki mahsulot, tarmoqda band aholi soni va ularning daromadlariga ta'sirini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Turizm ko'p tarmoqlar bilan uzviy hamkorlikda faoliyat olib boruvchi soha bo'lganligi va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega ekanligi sababli, uning makrodarajadagi tahlili dolzarb va muhim hisoblanadi. Mamlakat miqyosida turizm o'zida turli ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni, bir necha soha va tarmoqlar faoliyatini o'zida mujassamlashtiruvchi yaxlit kompleks sifatida amal qiladi. Shu sababli, bizning nazarimizda, uning keng qamrovli, serqirra faoliyatiga yo'naltirilgan investitsion sarf-xarajatlarni va ulardan olinadigan ijtimoiy-iqtisodiy samarani shakllantiruvchi, belgilovchi tizim shaklida omillar majmui sifatida ifodalash mumkin bo'ladi. Bizningcha, makroiqtisodiy tahlil jarayonida turizm investitsion resurslar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tizimi tarkibiga quyidagilarni kiritish lozim:

- ➔ xorijdan mamlakatga tashrif buyuruvchi va mamlakatdan xorijga sayohatga chiquvchi turistlar soni;
- ➔ ichki turizm hajmi;
- ➔ -xorijlik turistlarning sarf-xarajatlari (turizm eksporti);
- ➔ turizmga investitsiyalar;
- ➔ turizm bilan bog'liq ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasiga davlat xarajatlari;
- ➔ turizmning bandlikka qo'shgan hissasi;
- ➔ turizmning yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi;
- ➔ turizmdan davlat byudjetiga daromadlar;
- ➔ turizmdan aholi olgan daromadlari.

Makroiqtisodiy tahlil jarayonida yuqorida taklif etilgan omillarning o'zaro ta'sirini aniqlashga, jumladan turizmga yo'naltirilgan investitsiyalarning biz taklif qilgan ko'rsatkichlar miqdoriga va sifatiga ta'sirini, o'z navbatida ularning tarmoqdagi investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini tadqiq etishga asosiy e'tiborimizni qaratdik.

Masalan, O'zbekistonga tashrif buyuruvchi xorijlik yoki mahalliy turistlarning soni tarmoqqa yo'naltirilgan investitsion resurslarning miqdori va sifatiga bevosita bog'liq. O'z navbatida, turistik destinasiyaga tashrif buyurgan turistlarning soni va ularning turistik makonda bo'lish davomiyligi turizmga yo'naltirilgan investitsion resurslar samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мультипликативный эффект в туризме. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://poznayka.org/s53081t1.html>
2. Banerjee O. et al. An integrated model for evaluating investments in cultural heritage tourism in the Dominican Republic //Tourism Economics. – 2017. – Т. 23. – №. 8. – С. 1568-1580.
3. Квартальнов В.А. Туризм: Учебник для образовательных учреждений туристического профиля. – М.: Финансы и статистика, 2003. – С. 15 с.
4. Абульян Ю. И. Особенности инноваций в туризме // Экономика. Право. Печать. Вестн. КСЭИ. – 2013. – № 3. – С. 241-250.
5. Muxammedov M.M., Zaynalov J.R., Normurodov U.N., Ayubov I.I., Halikov Y.M. Iqtisodiyot nazariyasi . Darslik. – SamISI, 2022. Б. 354-361.

6. Мирзаева Ш. Н. и др. Локальные Международные Глобальные Рынки: Интеграция И Развитие //International Conference on Adaptive Learning Technologies. – 2025. – Т. 16. – С. 87-91.
7. Мирзаева Ш. Н., Ворисов Ш. Д. ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ МАЛОГО БИЗНЕСА //International Conference on Adaptive Learning Technologies. – 2025. – Т. 16. – С. 40-43.
8. Мирзаева Ш. Н., Назаров Н. Б. У. СБАЛАНСИРОВАННОЕ РАЗВИТИЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА, ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ УЗБЕКИСТАНА //International Conference on Adaptive Learning Technologies. – 2025. – Т. 16. – С. 44-47.
9. Мирзаева Ш. Н., Ашуров С. З. Анализ Инвестиционного Климата В Узбекистане, Состояние И Перспективы //GlobalBiz Summit: Business and Economic Strategies for the Future. – 2025. – Т. 1. – С. 72-75.
10. ILKHAMOVNA S. Z., NODIROVNA M. S., KHURSHEDOVICH A. A. TOURISM CLUSTERS IN THE DIGITAL ECONOMY //International Conference on Adaptive Learning Technologies. – 2024. – Т. 5. – С. 133-141.
11. ILKHAMOVNA S. Z., NODIROVNA M. S., KUVONCH R. EXPANSION OF THE SERVICE SECTOR IN THE CONTEXT OF INNOVATIVE CHANGES IN UZBEKISTAN //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – Т. 48. – С. 90-98.
12. ILKHAMOVNA S. Z., NODIROVNA M. S., ALIASKAR M. IMPORTANT ASPECTS OF THE THEORY AND METHODOLOGY OF MEASURING SOCIAL CAPITAL //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 49. – С. 167-174.
13. ILKHAMOVNA S. Z., NODIROVNA M. S., MUROD S. DIGITALIZATION OF SOCIAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE SERVICE SECTOR //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – Т. 48. – С. 80-89.
14. ILKHAMOVNA S. Z., NODIROVNA M. S., FIRUZA A. ECOTOURISM AS A TOOL FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND POVERTY REDUCTION //International Conference on Adaptive Learning Technologies. – 2024. – Т. 5. – С. 123-132.
15. ILKHAMOVNA S. Z., NODIROVNA M. S. SUBHONZODA SH THE EXPERIENCE OF OTHER COUNTRIES IN THE LEGAL REGULATION OF ECOTOURISM //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2024. – Т. 4. – №. 5. – С. 122-131.
16. SAIDAKHMEDOVICH S. T., NODIROVNA M. S., TOLIBOVNA T. D. P. O. F. S. B. AS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF THE COMPETITIVE ENVIRONMENT OF THE NATIONAL ECONOMY OF UZBEKISTAN //Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – 2024. – Т. 2. – №. 6. – С. 268-277.